

2025-yil, yanvar 1-sون



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

eTil va adabiyot – Преподавание языка и литературы – Language and literature teaching (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

**14-YANVAR – O'ZBEKİSTON QUROLLI KUCHLARI  
TASHKIL ETILGANINING 33 YILLIGI HAMDA  
VATAN HIMOYACHILARI KUNI!**



Rayxon RASULOVA,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasи v.b.dots., p.f.f.d (PhD)

## O'QUVCHILARNING KITOBOXONLIK MADANIYATINI MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH ORQALI RIVOJLANTIRISH

**Annotatsiya:** ushbu maqolada umumta'llim maktab o'quvchilarining kitobxonliklarini matn yaratish qobiliyatlarini rivojlanitirish orqali o'stirish haqida fikr bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** *kitobxonlik, matn yaratish, ijtimoiy tarbiya, badiliy adabiyot, matn tahlili, ijod, ijodiy jarayon.*

**Аннотация:** в данной статье высказывается идея о развитии навыков чтения у учащихся средних школ через развитие навыков создания текста.

**Ключевые слова:** чтение, текстотворчество, социальное воспитание, художественная литература, анализ текста, творчество, творческий процесс.

**Annotation:** this article expresses the idea of developing reading skills in secondary school students through the development of text creation skills.

**Key words:** reading, text creation, social education, fiction, text analysis, creativity, creative process.

Hozirgi kunda o'quvchilarning har tomonlama iqtidorini oshirish va kelajakda yetuk qilib tarbiyalash maqsadida ta'ilim sifatini oshirishga qaratilgan yurtboshimiz tomonidan bir necha qaror va qonunlar amalga oshirildi. 2017 - yil 13 - sentyabrdan davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlanitirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori yoshiarda Kitobxonlik va kitob mutolaasiga, shuningdek, o'zbek va jahon adabiyotlari bo'lgan qiziqishlarini oshirishga etibor yanada kuchaytilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan 2019 - yining mart oyida esa "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ulaming bo'sh vaqtlarini mazmuni tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus" ilgari surildi. Ushbu beshta tashabbusning to'rtinchisida – yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish nuqtayi nazaridan "...yosh avlodning ijodiy va intellektual sahoyiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish" kabi vazifalar belgilangan.

"O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASIDA ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar masalalarini ko'rib chiqilgan. Bunda o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini keng ommalashirish, jamiyatda kitobxonlikni hamda aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni rivojlanitirish bo'yicha bir qancha vazifalar belgilangan. Unda o'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy meroesini asrab-avayash, keng ommalashirish hamda rivojantirish bo'yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish; ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish; kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish; har yili 100 ta eng yaxshi badiliy asar hamda bolalar va

o'smirlarga mo'ljalangan 50 ta badiliy kitoblar yaratish; "O'zbek adabiyot xazinasidan" ko'p jildlik, "Jahon bolalar adabiyoti durdonalarini" 100 jildigini o'zbek tilida nashr qilish kabi vazifalar belgilandi. Ushbu chora-tadbirlar, yoshlarimizni kelejakda barkamol bo'lib yetishishihamda ma'naviy yuksak bo'lib ulg'ayishlari uchun munosib shart-sharoitlardir. Kitob o'qish har qanday kitobxonda ijodkorlik kompetensiyalarni shakllantiradi. Jumiadian, umumta'llim maktab o'quvchilarining matn yaratish qobiliyatini rivojlanirishda kitob mutolaasiga murojaat etish ishning samarasini oshiradi.

Bu yondashuvda ona tili va adabiyot darslarini uyg'unlashtirgan holda olib borish kitobxonlik yo'lida-gi odilona qarordir. Bunda biz bevosita va bilvosita badiliy kitobiarga murojaat etishimiz har tomonlama to'g'ri yondashuv hisoblanadi. Kitob mutolaasi ham tafakkurni, ham savodxonlikni oshiruvchi asosiy mabadir. Kitob – zamonalr to'iqinida suzuvchi, o'zidagi ma'nolar xazinasini ajodilardan avlodlarga avaylab yetkazuvchi tafakkur kemasidir. Uning har bir sahifa-si hikmatiarga boy va dillarga ro'shnomlik kiritib, ezgu tuyg'ularni uyg'otmoqqa qodir. Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, "Kitob (bitig) barcha bonyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilm-u donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiyidir". Insonning tili va madaniyati kitobxonlik bilan uzvli bog'liq holda rivojantirsa u barkamol bo'ladi.



Kitob mutolaasi insonni nafaqat tarbiyalaydi, balki uni madaniyatlari qiladi, ona tiliga mehr uyg'otadi.

O'tgan yigirmanchi asrning mashhur yozuvchilaridan biri, adabiyot sohasidagi xalqaro Nobel mukofoti sovindori Hermann Hessenning kitob mutolaasi borasida: "Kitoblar insonni hayotga yo'llagandagina, unga xizmat qilgandagina foydalidir. Agar kitob o'quvchiga oz bo'lsa-da, kuch-g'ayrat, shijoat, ma'naviy poklik baxsh etmasa, mutolaas uchun sarf etilgan har bir soat behuda va besamar bo'lib qolaveradi, har bir kishi o'zi uchun zarur bo'lgan, yangi kuch hamda ruhiy ta'sir baxsh eta oladigan kitobfamigina topa bilishi zarur", degan fikrlarida kitoblarni saralab o'qish lozimligi bilan bir qatorda kitobxonlarni ham 3 toifaga ajratganligi diqqatga sazovordir.

- sodda kitobxon, ular asar muallifining barcha zavq-shavq, quvonchiga va ilhomiga sherik bo'ladi, uning dunyoqarashiha butku qo'shilib, muallifning tasavvur mahsuli bo'lmish turicha ma'no berish holatlarini hech bir e'tirozsiz qabul qiladilar. Bunday sodda kitobxon mutolaaga bo'lgan munosabatiga ko'ra, umuman shaxs hisoblanmaydi, balki o'zi bilan o'zi andarmon o'quvchi, xolos. U romandagi voqealarini yo ularning keskinligiga, xavf-xatarga to'la sarguzashtlar, ishqiy lavhalarga boyligiga, tasvirning dabdbabli yoki ojizligiga qarab baholaydi yoki buning o'miga, muallifning o'ziga qigina baho berib qo'ya qoladi, ya'ni uning muvaffaqiyatlarini shunday andaza bilan o'chaydiki, bu me'yor har doim pirovardida odatga aylanadi. Bunday o'quvchi kitobni umuman, his qilib, tushunib o'qish va mazmuni yoki shakliga munosib baho berish uchungina yaratilgan deb o'yaydi, bunga shak-shubha qilmaydi.

- ikkinchi turdag'i kitobxonga nimadir "yuqadi". Bunday o'quvchi asar mazmuni yoki shaklini qanchalik qadriasa, uning haqiqiy, yanada muhimroq qadr-qimmatini ham shunchalik yuqori baholaydi. Bu kitobxon bolalarga o'xshab, har bir narsaning ehtimol o'n yoki yuz mazmun-mohiyati, ahamiyati va qadr-qimmati borligini yaxshi biladi. Mazkur o'quvchi, masalan, yozuvchi yoki faylasufning voqe-a-hodisa hamda narsalarga nisbatan o'z bahosini o'z-o'ziga yoxud kitobxonga majburan qabul qildirishga urinayotganini kuzata borib, jilmayib qo'yishi, muallifning erkinligi va esossizligi bo'lib ko'rinishayotgan narsa asilda sustkashlig-u majburiashdan boshqa narsa emasligini payqab olishi mumkin.

- uchinchi turdag'i kitobxon zohiran "yaxshi" deb nom o'gan o'quvchining butunlay teskarisidir. Bu kitobxon shu darajaga yetgan shaxski, u hech kimga o'xshamaydi. Agar bunday o'quvchi kitobdan biron-blr sentensiya,

ya'ni hikmatli so'z, dono gap, hikmat topib olgudek bo'lsa, eng avvalo, topilmaning avra-astarini ag'daradi. U azal-azaldan biladiki, har qanday haqiqatni inkor etish ham asl haqiqatdir. U ma'naviyat sohasidagi har qanday fikr, qarash, nuqtayi nazar qutb ekanigini va unga qarama-qarshi xuddi shunday zo'r qutb ham mavjud ekanini azal dan yaxshi biladi. U biron faylasufning asarini unga ishonib, ta'limotini o'rganib olimoq yoki uni tanqid qilib, unga qarshi harakat qilmoq uchun o'qimaydi, biron-bir shoirni dunyoning qanday yaraaganini tushuntinib berishi uchun mutolaas qilmaydi. Yo'q, u hamma narsani o'zi tushunadi, o'zi anglay oлади. U, ta'bir joiz bo'lsa, komil inson. U - o'z mutolaas saltanatida mutlaq hokimdir. U o'z fantaziyasida hatto Qizil Shapkacha haqidagi ertakni qandaydir kosmogoniya yoki falsafa yoxud go'zal ishqyl poeziya yanglig' mutolaas qilishi mumkin bo'ladi.

Hermann Hessen kitob mustaqil bo'lmagan kishilarni yana ham ma'naviy zaiflashtrish uchun yozilmaydi, chunki mingta loqayd o'quvchidan o'nta yaxshi kitobxon afzal deb biladi.

Kitobni ravon va ifodalil o'qish ravon va mantiqli nutq garovidir. Negaki ravon, ifodalil o'qish natijasida o'qiganlarini tushunish oson kechadi, bu esa o'z navbatida o'ziga nisbatan ishonchni oshiradi hamda ravon va izchil nutq sohiblarini yetishtiradi.

F.A. Soxin, O.S. Ushakova va ularning shogirdlari tomonidan ravon nutqni shakllantirishning turi jihatlar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ravon nutqni beholashning shunchaki mantiqilik, izchillikdan ko'ra yanada aniqroq mezonlarini qidirishni galdagi vazifa ardan biri qilib qo'ydi. Ravonlikning asosiy ko'satkichi sifatida badily asarlarni ifodalil o'qish, she'riami ta'sirchan etib yod ash hamda o'qiganlardan foydalangan holda, matnini tarkibli jihatdan to'g'ri tuzish qobiliyatini shakllantirish qabul qilingan.

A.A. Leontev L.S. Vigotskiy va A.N. Leontevning qoldalariga tayangan holda, asosiy faoliyat turi sifatida qaraydigan nutqiy faoliyat shakllanishi konsepsiyasini ishlab chiqdi. Uning qayd etishicha, nutqni rivojlantirish - bu eng avvalo, muloqot usullarini rivojlantirish bo'lib, u amri o'zlashtirish matn yaratish qobiliyatini shakllantirishni talab qiladi. Matn yaratish qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomonidan, badily asarlar bilan muloqot bilan, o'zga tomonidan esa, ijtimoiy ehtiyojlar bilan bog'liq.

Demak, muloqotni nafaqat atrof-olam, balki kitoblar olimiga sayohat orqali ham amalga oshirish o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishda yetakchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi hamda kitobxonlik salohiyatini oshiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1.Rayhan Rasulova. An integrative approach to the analysis of a work of art. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 3 | Issue 12 | Dec-2023 ISSN: 2795-8612

2 Расулова Р. Адабий таълимда интегратив ёндашув MUALLIM HAM UZLUKSIZ BILIM LENDIRIO'. Imiy-metodik jurnal № 1/3 2024.



# Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

## Tahrir hay'atlari:

Nizomiddin Mahmudov

Yorqinjon Odilov

Jabbor Eshonqulov

Baxtiyor Daniyarov

Abdurahim Nosirov

To'lg'ın Saydaliyev

Baro Burasova

Zulkumor Mirzayeva

Qozog'boy Yo'llidov

Bahodir Jovliyev

Salima Jumayeva

Qayum Baymirov

Manzar Abdulxayrov

Alijon Safarov

Husniddin Norqulov

Odiljon Boymazarov

Madina Nuriddinova

Latifa Xudayqulova

Baro Kadirova

Nargiza Mirzayeva

Gali Shukurova

Yuldesh Raxmatov

Ramziiddin Abdusatorov

Feniza Manukyan

Gulchexra Keldiyorova

Gulsanam Xolikulova

Komiljon Qarshiyev

Svetlana Umirova

Xolmo'min Fayzullayev

Nilufar Namazova

Dilbar Niyazova

Sayyora Halimova

Shaxsoza Yunusova

Nigoraxon Ro'zibayeva

Tadjixon Sabitova

Nigoraxon Ro'zibayeva

Ra'sno Mullaqodjayeva

Ashorat hamkorimiz:

## TIL VA ADABIYOT

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-soni  
qarori bilan

## Bosh muhabbir:

Nargiza BERDIYEVA

## Muhammetlar:

Bibimaryam RAHMONOVA

Shabnam G'ANIYEVA

Bonu DO'SMATOVA

## Sahibzadech:

Mahliyo ABDUQODIROVA

## Tahririyat maxallari:

100038, Toshkent shahri

Naveyi ko'chasi 30-uy.

Telefon: (90) 322-87-16.

e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com



Til va adabiyot.uz

Ilmiy-metodik elektron jurnal

## MUNDARIJA

## DOLZARB MAVZU

**Mahfuza Karaxodjayeva.**

Turkiy xalqlar yagona alfaviti ..... 2

**Rayxon Rasulova.** O'quvchilarningkitobxonlik madaniyatini matn  
yaratish kompetensiyalarini  
shakllantirish orqali rivojiantirish ..... 7

## TILSHONOSLIK

**S.M. Axmadaliyeva.** Predsedentnomlar asosida shakllangan  
pragmatonimlar ..... 9**Nafisa Amanlikova.** Parallelkorpusda tarjima birliklarining  
lingvomadanly xoslanishi (XX asr o'zbek  
she'riyati misolida) ..... 12**Muhammadjon Ergashev.** Theetymology of english language  
lexicography ..... 14

## ADABIYOTSHUNOSLIK

**Ayimxan Eshniyazova.**Ahmad A'zam novellalarida uyg'oq  
tafakkur taliqini ..... 16**Zebo Hamzayeva.** Tomas Xardiasariarida tabiat va jamiyatning  
o'zaro aloqasi ..... 20**Gulmira Abdullayeva.**"The Image of Youth in the Works of  
Khayriddin Sultan" ..... 22ILGOR PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYA**Shahribonu Sirojiddinova.**Badiiy mifologemani qardosh  
bo'limgan til oilalarida qo'llanilishi  
(Ingliz va o'zbek tillari misolida) ..... 25**Madina Mamasaidova.**Iboralarni tizimi o'qitish bo'yicha  
metodik tavsiyalar ..... 27**Sadoqat Azimova.** Ona tili ta'limdi  
evristik yondashuvning ilmiy asoslari  
va ta'limda qo'llanishi ..... 30**Xatam Razzaqov.** O'quvchilarning  
yozma nutqini rivojiantirishda yozish  
modellarining ahamiyati ..... 33**Nasiba Niazova.** Роль  
коммуникативного подхода  
в обучении академическому  
письму на основе современных  
педагогических технологий ..... 37**Amina Fattakhova.**  
Литература как инструмент  
развития правового мышления  
у студентов-юристов ..... 39**Bazargul Khojaniyazova.**  
The use of technology  
in english language teaching ..... 42**Feruza Ishanxodjaeva.** Using videos  
to increase motivation in foreign  
language lessons ..... 46**Diloromxon Ismoilova.**  
John Steinbeck: works and  
linguopoetics ..... 48**Feruzakhon Tilavoldiyeva.**  
Enhancing Reading and Writing Skills  
Through Collaborative and  
Task-Based Approaches ..... 50**Umida Irgasheva.** Developing  
steam tecnholgies in teaching  
english as a foreign language ..... 53**Raximberdi Ayatov.** Didactic learning  
in blended teaching of english  
language and literature ..... 56

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi  
Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-soni  
qarori bilan **Fiologiya, Pedagogika hamda Psixologiya** fanlari bo'yicha doktorlik  
dissertatsiyalari (*PhD, DSc*) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tezsiyasi etilgan milliy  
ilmiy nashridir. <https://oak.uz/pages/4802>